



SOCIO-POLITICAL EVENTS THAT OCCURRED IN MOVAROUNNAHR IN THE 18TH CENTURY

J. Q. Ummatov

Master's student

University of Exact and Social Sciences

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: dynasty, power, socio-political life, crown prince, reform, Suluk, navkar, rebellion, atalyk, ruler.

Received: 01.12.24

Accepted: 03.12.24

Published: 05.12.24

Abstract: This article discusses the socio-political processes that took place in Central Asia in the 18th century, their causes, factors and consequences. It also provides conclusions about the influence of existing historical conditions on the spiritual life of the people, in particular, about the role of Sufism and Tariqa in development.

XVIII ASRDA MOVAROUNNAHRDA YUZ BERGAN IJTIMOIY-SIYOSIY VOQEALAR

J. Q. Ummatov

Magistratura talabasi

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: sulola, hokimiyat, ijtimoiy-siyosiy hayat, valiahd, islohot, Suluk, navkar, qo'zg'olon, otaliq, hukmdor

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVIII asrda Markaziy Osiyoda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, uning sabab va omillari, oqibatlari haqida so'z boradi. Shuningdek, mavjud tarixiy shart-sharoitlarning xalq ma'naviy hayatiga ta'siri, xususan, tasavvuf va tariqatning rivojlanishidagi roli haqida xulosalar beriladi.

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ СОБЫТИЯ, ПРОИЗОШЕДШИЕ В МОВАРУННАХРЕ В XVIII ВЕКЕ

Ж. К. Умматов

студент магистратуры

Университет точных и социальных наук

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: династия, власть, общественно-политическая жизнь, цесаревич, реформа, Сулук, навкар, мятеж, аталаык, правитель.

Аннотация: В данной статье говорится об общественно-политических процессах, происходивших в Средней Азии в XVIII веке, их причинах, факторах и последствиях. Также даются выводы о влиянии существующих исторических условий на духовную жизнь народа, в частности, о роли суфизма и Тариката в развитии.

XVIII asr boshlariga kelib, Markaziy Osiyoda hukm surayotgan Ashtarxoniyalar sulolası vakillarining o‘zaro kelishmasligi va viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga bo‘ysunmaganliklari sababli, davlatlar inqirozga yuz tutdi. Chunki, xonlar mamlakatda obro‘li mavqega ega bo‘lgan o‘zbek urug‘larining boshliqlariga yanada tob’e bo‘lib, ularga nufuzli mansablarni topshirishga majbur edilar. Hokimiyatdagi amaldorlar esa o‘zaro til biriktirib, xonlarni almashtirar, mamlakatdan quvg‘in qilar yoki qatil etishar edi. Oqibatda, o‘zaro urushlar to‘xtamay, mamlakatdagi siyosiy vaziyat chigallashib borar edi. Jumladan, Buxoro xonligida ashtarxoniyalar sulolası vakili Subxonqulixon ibn Nodir Muhammadxonning (1681-1702) vafotidan keyin taxtga kelgan uning o‘g‘li Ubaydullaxon (1702-1711) hokimiyatga kelib, hijriy 1113-yil 3-jumod al-avval, yakshanba (1702-yil 16-oktabr) kuni Buxoro taxtiga o‘tirdi [1, 222]. Balxda esa Subxonqulixonning nabirasi Muqimxon ibn Iskandarxon o‘z ma’muriy tizimida Mahmudbiy Otaliqni Qunduzdan keltirib, mulkning muhim ishlarini unga topshirgan edi. Biroq ko‘p vaqt o‘tmasdan Mahmudbiy otaliq 1705-1706-yillarda Ashtarxoni Muqimxonni qatl etib, o‘zi Mahmud Baxodirxon nomi bilan Balx taxtini egallaydi. Ubaydullaxon bu xabarni eshitib, Balx tomonga qo‘sish tortib, shaharni qamal qiladi. Xalq unga shahar darvozasini ochib bergach, Mahmudbiy otaliq shahardan qochib ketadi. Ubaydullaxon Odilbiy mingni Balx viloyati mulklarining bosh otalig‘i qilib tayinlaydi [2, 266-269].

Ubaydullaxon kuchayib borayotgan siyosiy tarqoqlikni bartaraf qilish maqsadida urug‘-qabila boshliqlarining ma’lum bir qismini markaziy hokimiyatdan chetlashtirdi. Ruhoniylar va zodagonlar bilan kelishishga urindi. Biroq bu chora aks ta’sir qilib, ichki ziddiyatlarni yanada kuchaytirib yubordi. Natijada, 1711-yilda Ma’sumbiy otaliq saroy, Hojibiy otaliq, Jamshid qushbegi qalmoq va o‘zbeklarning boshqa qabila vakillari ittifoq qilishib, shahar tashqarisida bo‘lgan 30 yoshli Ubaydullaxonni qatl etishadi [3, 13].

Mazkur voqeadan so‘ng Buxoro taxtiga Ubaydullaxonning ukasi Abulfayzzon (1711-1747) o‘tiradi. Biroq ko‘p o‘tmasdan, u o‘z amirlari qo‘lida qo‘g‘irchoqqa aylanib qoladi [4, 37]. Homiyatni aslida nufuzli amirlardan bo‘lgan Javshan qalmoq, so‘ngra Abdullabiy qo‘sibegi, keyinchalik esa Muhammad Hakimbiy otalilqar boshqardilar.

Mamlakatdagi porakandalik ko‘chmanchi qozoq qabilalariga qo‘l keldi. Tarixchi Muhammad Yaqub ibn Amir Doniyorning qayd qilishicha ular yetti yil (1723-1729) maboynda Zarafshon va

Qashqadaryo vohalaridagi serhosil ekinzorlarni taladilar. Bu davrda Abulfayzxon huzuriga Rossiya imperatori Pyotr I nomida elchi bo‘lib kelgan Florio Benevinining esdaliklarida Buxoroning bir qism sarbozlarida oddiy tatar miltiqlari bo‘lib, qolganlarida esa to‘qmoq (qora kaltak) bo‘lgan. Shuningdek, Buxoroda 13ta hind zambaraklari bo‘lgan [3, 14].

1736-yilda Eron hukmdori Nodirshohning o‘g‘li Rizoquli boshchiligidagi dushman qo‘smini Amudaryodan kechib, Qarshi va G‘uzor shaharlarini qamal qildi. Nodirshohdan ortga qaytishga buyruq olgan fors qo‘sminlari Qarshi yaqinidagi Shulluk (Qarshi shahridan shimoli-g‘arbda taxminan 8 km masofada joylashgan hudud. Qadimgi Nasaf va Naxshabning haroblari hozirgi vaqtida Shulluktepa nomi bilan ataladi) qal’asida hokim bo‘lib turgan Doniyolbiyni (Hakimbiy mang‘itning 4-ukasi) asir sifatida Eronga olib ketadilar.

Doniyolbiy biroz vaqt Nodirshoh mulozimlari orasida yurib, tarixchi Mir Husayn ibn Amir Haydarning yozishicha bir jangda qahramonlik ko‘rsatgach, Nodirshoh uni boshqa asirlari bilan birga ozod qilib, ba’zi gaplarni va o‘z maktubini Abulfayzxonga yetkazishini ta’yinlaydi. Nodirshoh Buxoro xonligidagi siyosiy va harbiy holat haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lganligi uchun 6 oydan so‘ng mamlakatga bostirib borishini oshkora ravishda e’lon qilgan. Doniyolbiyning ozod qilinishi natijasida Nodirshoh va Hakimbiy otaliq o‘rtasida do‘stlik paydo bo‘lgan. Sababi, mazkur voqeadan keyin, Hakimbiy otaliq ikkinchi o‘g‘li Muhammad Rahimni Nodirshohning xizmatiga yubordi. Bu tadbir Muhammad Rahimga keyinchalik, Buxoro taxtini egallashida qo‘l keldi. Oradan ikki yil o‘tib, 1740-yilda Nodishoh boshchiligidagi Eron qo‘smini Movarounnahrga bostirib kirdi. Muhammad Rahim ularni Buxoroga boshlab bordi.

Buxoro Eronga qo‘shib olingach, Abulfayzxon nomigagina mamlakat hukmdori bo‘lib, amalda butun hokimiyat otaliq Muhammad Hakimbiyning qo‘lida qoldi [3, 15]. U 1747-yilda vafot etgach, Nodirshoh Muhammad Rahimga otasining janozasini o‘tkazib, qaytib kelish sharti bilan 500 o‘zbek navkarlari hamrohligida Buxoroga borib kelishiga ijozat beradi. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, navkarlarning bundan ham ko‘proq bo‘lgani, 500 o‘zbek navkarlaridan tashqari, Marvda qo‘zg‘olon ko‘targan qizilboshlar to‘dasi hamda Chorjo‘ydagi turkmanlarning qo‘shilgani qayd qilingan [4, 45].

Muhammad Rahim Saraxsga yetganida Nodirshohning o‘ldirilganini (1747-yil, 20-iyun) eshitadi. Ammo buni sir saqlagan holda Buxoroga yetib kelib, hokimiyatni o‘z qo‘liga oladi. Taxtga esa, Abulfayzxonning o‘g‘li Abdulmo‘minxonni (1747-1751) xon qilib ko‘taradi. Bu harakatlar Nodirshohning ko‘rsatmasi asosida bo‘lmoqda deb, xalqqa e’lon qiladi. Movarounnahrdan turgan Eron sarkardalari bu ishlarga norozi bo‘lib, Abulfayzxonni o‘z taxtiga qaytadan qo‘yish maqsadida Buxoroga otlanadi. Bundan xabar topgan Muhammad Rahim ularning rejasini barbod qilish maqsadida 49 yoshli Abulfayzxonni qatl ettiradi.

Muhammad Rahim uning o‘rniga Urganchdan Ibodulloh Sultonni (1751-1754) keltirib, nomiga xon qilib ko‘taradi. Ammo Ibodulloh Sulton ham, keyinroq uning o‘rniga xon bo‘lib ko‘tarilgan

Sherg‘ozi (1754-1756) ham qatl etildi. Abulfayzxonning o‘limidan so‘ng to 1756-yilga qadar taxtga Ashtarkoniylardan vakillar o‘tqazilgan bo‘lsa-da, amalda hokimiyat mang‘it urug‘i vakili Muhammad Rahim qo‘lida edi. U o‘z hukmronligining dastlabki davrilari dayoq, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga kirishdi. Mamlakatdagi, siyosiy vaziyatning yaxshilanishidan manfaatdor bo‘lgan kuchlar – yirik yer egalari, savdogarlari, ulamoyu fuzalolar uning bu intilishlarini qo‘llab-quvvatladilar [5, 192].

Shunga qaramay, Muhammad Rahimning xonlar avlodidan emasligi sababidan, ayrimlar, masalan Nurota, Miynqol hokimlari uning taxtni egallashiga qarshi chiqdilar. 1756-yilning dekabrida Muhammad Rahimni rasman taxtga o‘tqazish marosimi bo‘lib o‘tdi. Buxoro tati shu alfozda ashtarkoniylardan mang‘itlar qo‘liga o‘tdi. Uning asosiy sabablaridan biri mang‘it urug‘i vakillarining ancha yillardan beri hokimiyatga intilishlari bo‘lsa, boshqa tomondan ashtarkoniylarning tarqoqligi va davlatchilik bobida uquvsizligi bo‘ldi. Nodirshohning bosqinchilik yurishlari esa bu siyosiy o‘zgarishlarni tezlashtirishga yordam berdi.

O‘z hokimiyatini mustahkamlab olgan Muhammad Rahimxonni Buxoroning qonuniy hukmdori sifatida tan olishib, Qo‘qon, Toshkent, Marv, Balx va Qunduz beklaridan rasmiy elchilar tashrif buyurdilar [5, 193]. Tarixchi Mirzo Abdulazim Somiyning yozishchicha, Muhammad Rahimxon rasmiy ravishda “ikki yilu uch oy o‘n besh kun podsholik qilib, 45 yoshida oxiratga safar qildi”. Muhammad Rahimxonning vafotidan so‘ng Buxoro taxtiga uning qizidan bo‘lgan nabirasi Fozil to‘ra ibn Norbo‘tabiy ibn Badalbiy ibn Hakim otaliq o‘tirdi. Biroq Fozil to‘ra podsho bo‘lgan vaqtida 6 yoshda edi. Shu sababdan Muhammad Rahimxonning amakisi unga otaliq qilib tayinlandi.

Doniyolbiyning (1759-1785) hukmronligi ancha qiyin boshlandi. Ayniqsa, 1771-yili Shahrisabz va G‘uzorda ko‘tarilga qo‘g‘olon davlatning poydevoriga jiddiy zarar yetkazdi. Garchi, Doniyolbiy katta qiyinchilik bilan ularning Buxoro hokimiyatini tan oldirishga erishgan bo‘lsa-da, bu bilan ular uzil-kesil bo‘ysundirildi degani emas edi. Chunki, Shahrisabzdagi kuchlar amalda o‘z mustaqilliklarini saqlab qolib, bundan tashqari, Buxoro hokimiyatiga doir xavf solib turganlar [6, 181-183]. Saroya ham Doniyolbiyga qarashi kuchlar uning hokimiyatini ag‘darish payida bo‘lganlar.

Doniyolbiy shu tarzda 27 yil hukmronlik qilib, 1785-yilda 75 yoshida vafot etdi. Buxoro taxtiga uning katta o‘g‘li Shohmurod (1785-1800) o‘tirdi. Shohmurod boshdanoq, mamlakatda qat’iy tartib o‘rnatishga kirishib, ishni sulola mavqeini rasmiy jihatdan mustahkamlashdan boshladi. Ya’ni, soxta xonlik an’anasiga chek qo‘yib, taxtni amir unvoni bilan o‘zi egalladi. Otasining davrida rasman xon hisoblangan Abulg‘ozixonni esa maosh berib, arkda saqlab turdi. Shu vaqtadan e’tiboran mamlakat boshlig‘i amir hisoblanib, davlatdagi biror siyosiy kuch mang‘itlarning ayni vaqtida Shohmurodning taxtga da’vosi asossizligidan bahona chiqara olmas edi. Shundan so‘ng bu davlat Buxoro amirligi deb atala boshladi.

Tarixda “amiri ma’sum” (begunoh amir) deb nom olgan Shohmurodning hukmronlik yillari Buxoroda markaziy hokimiyatning nisbatan kuchayish davri bo‘ldi. U o‘z hukmronligining dastlabki yillarida mamlakatdagi tarqoqlikka qarashi qattiq kurash olib bordi. Buxoroga bo‘ysunishdan bosh tortgan Karmana, Shahrisabz, Xo‘jand va boshqa shaharlardagi guruhlar ustida harbiy yurishlar uyushtirib, ularni bo‘ysundirdi.

Amir Shohmurod siyosiy vaziyatni yaxshilash bilan birga qator muhim iqtisodiy, madaniy tadbirlarni ham amalga oshirdi. Jumladan, Zarafshon va Qashqadaryo vohalaridagi, Amudaryo bo‘ylaridagi sug‘orish tizimlarini qayta tikladi. Yangi inshootlar, ko‘priklar, yo‘llar qurdirdi. Boshqaruv tizimida moliya, qozilik, ma’muriy va harbiy sohalarda islohotlar o‘tkazilishi (masalan sud ishlaridagi nohaqliklarga chek qo‘yilishi, mahalliy amaldorlar faoliyati ustidan nazorat o‘rnatalishi va h.k.) natijasida mamlakatda iqtisodiy jihatdan ham yuksalish yuz berdi [7, 116]. Ularning eng muhimlaridan biri 1785-yilda amalga oshirilgan pul islohoti edi. Unga ko‘ra qadrli bo‘lgan, lekin avvalgi pullardan kichik hajmli kumush tangalar zarb qilindi. Shuningdek, kimning qo‘lida kumush metal bo‘lsa, istalgan zarbxonaga kelib, ularni kumush tangaga almashtirish ham yo‘lga qo‘yilgan edi. Qolaversa, soliqlarni tartibga solinishi esa, savdo-sotiq, hunarmandchilik va qishloq xo‘jaligi yuksalishiga sharoit yaratdi. Bir so‘z bilan aytganda, Doniyorbiy va uning o‘g‘li Shohmurodning hukmronlik davrida Buxoro amirligi nisbatan mustahkamlandi [7, 155].

Xulosa qilib aytganda, XVIII asr Markaziy Osiyo xalqlari tarixida o‘ziga xos ancha murakkab siyosiy kechinmalar yuz bergan davr sanaladi. Buxorodagi markaziy hokimiyatning zaifligidan foydalanib Chodak xo‘jalari 1709-yili Farg‘onada bosh ko‘targani va natijada Qo‘qon xonligi tuzilib, 1710-yilda uning mustaqil davlat deb e’lon qilingani, Movarounnahr hududiga tashqi tajovuz, aniqrog‘i Nodirshoh boshchiligidagi Eron qo‘shinlarining bostirib kirishi, Buxoro hokimiyati ashtarxoniylardan mang‘itlarga o‘tishi natijasidagi sulolaviy almashinuv va Buxoro taxtini egallagan Muahmmad Rahimbiyning mang‘itlar sulolasiga asos solgani, uning vafotidan keyin amakivachchasi Doniyorbiy hukmronligi davrida mamlakatda sisyosiy barqarorlikning o‘rnatalishi sababli ma’naviy-madaniy hayot ancha yaxshilandi. Uning vorisi amir Shohmurod davrida esa, Buxoro amirligining tashkil qilinib, uning har tomonlama rivojlanganligi XVIII asrning so‘nggi choragidagi eng muhim siyosiy jarayonlardan biri edi. Bu kabi siyosiy barqarorlik o‘z o‘rnida mamlakatning nafaqat iqtisodiy, balki, ma’daniy-ma’naviy hayotning ijobiy siljishiga turtki bo‘ldi. Bir so‘z bilan aytganda, XVIII asrda O‘rta Osiyo davlatari, jumladan, Buxoro xonligidagi mavjud ijtimoiy-siyosiy hayot xalqning ma’naviy olamiga ham bevosita ta’sir qilganligi bilan izohanadi. Natijada, mamlakatda ma’naviyat, ma’rifat ham bir muncha yuksaldi. Humkdorlarning alohida homiyliklari yoki islohotlarning natijasi o‘laroq, tasavvuf ilmi ham rivojlandi. Buxoroda tasavvufga oid, uning tadqiqiga bag‘ishlangan ko‘plab asarlarning yozilganligi XVIII asrda O‘rta Osiyoda tasavvuf ilmining o‘z ahamiyatini saqlab qolganligini ko‘rsatadi. Xususan, Shayx Xudoydodning “Bahr al-

ulum” asarini ham O‘rta Osiyoda tasavvufining XVIII asrdagi tarixini yoritishda muhim manbara aylanganligini ham shu bilan izohlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati

1. Ахмедов Б.А. История Балха (XVI – первая половина XVII в.). – Ташкент: Фан, 1982.
2. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000.
3. Исмоилов М.М. Шайх Худойдоднинг “Баҳр ал-улум” асари Марказий Осиё тасаввуф тарихига оид муҳим манба (XVIII асрнинг иккинчи ярми). Тарих фан. ном. дисс... – Тошкент, 2006.
4. Ўзбекистон халқлари тарихи. Т.II. – Тошкент: Фан, 1993.
5. Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Тошкент: Академия, 2000.
6. Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве. Т.І. – Ташкент: Фан, 1970.
7. История Узбекской ССР. С древнейших времен до наших дней / под. ред. акад. АН Уз ССР И.М. Муминова. – Ташкент: Фан, 1974.